
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan “Qo’shtepa tumani Shahartepa MFY Hamjihatlik ko’chasidagi arteziandan 40 yildan buyon suv chiqmaydi” sarlavhasi ostidagi maqola yuzasidan Qo’shtepa tumani hokimligi Matbuot xizmati quyidagilarni ma'lum qiladi.

Mazkur shikoyat tuman Xalq qabulxonasi va suv ta'minoti MCHJ Qo’shtepa tuman filiali mutaxassisleri tomonidan joyiga borib o’rganildi. O’rganishlar davomida tik ichimlik suv qudug’iga mahalliy yosh bolalar tomonidan tosh va shunga o’xshash qattiq jismlar tashlanishi natijasida quduq ichidagi suv yo’li to’silib qolganligi aniqlanib, shu kunning o’zida yuqori bosimli havo haydash moslamasi (kompressor) yordamida tozalash ishlari olib borildi. Lekin quduq ichidagi tosh va qattiq jismlar ko’pligi sababli, tozalash ishlari o’z natijasini bermadi. Endilikda ushbu suv qudug’ini “Burg’ulash” agregati orqali tozalash rejalashtirilganini ma'lum qilamiz.

Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-09-11 15:21:16